


## **Asosiy kapitalga investitsiyalar**

2020- yil yanvar-dekabr

Hisobot davrida 8167,4 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 44,0 % i, yoki 3595,3 mlrd. so'm markazlashgan mablag'lar hisobidan, shuningdek 56,0 %, yoki 4572,1 mlrd. so'm – markazlashmagan mablag'lar hisobidan moliyalashtirildi.



### ***Asosiy kapitalga investitsiyalar***

*Hisobot davrida markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan – 3595,3 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalarning 44,0 % ini tashkil etib, 2019- yilga nisbatan 1,7 % ga kamaydi. Jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 56,0 % i yoki 4572,1 mlrd. so‘m markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan o‘zlashtirildi va 2019- yilga nisbatan 29,6 foiz punktiga kamaydi.*

*Korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobidan 1949,4 mlrd. so‘m , jami investitsiyalarning 23,9 % ni, o‘sish sur‘ati 79,7 % ni tashkil etdi. Aholi mablag‘lari hisobidan 832,2 mlrd. so‘m , umumiy hajmdan ulushi 10,2 % va o‘sish sur‘ati 80,4 % ni tashkil etdi.*



*Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 2544,0 mlrd. so‘m va 2019- yilga nisbatan o‘sish sur‘ati 174,6 % ni tashkil etdi, jami investitsiyadagi ulushi 31,1 % ni tashkil etdi. Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 574,6 mlrd. so‘m va ulushi jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,0 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan o‘sish sur‘ati 79,5 % tashkil etdi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar – 203,5 mlrd. so‘m (ulushi 2,5 % va o‘sish sur‘ati 21,5 % ni tashkil etdi), Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi 86,6 mlrd. so‘m (ulushi 1,1 % va 14,9 % ni tashkil etdi), Respublika byudjeti 891,7 mlrd. so‘m ( ulushi 10,9 % va 57,4 % ni tashkil etdi), Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi 73,0 mlrd. so‘m (o‘sish sur‘ati 104,6 % va ulushi 0,9 %) ni tashkil etdi. Kafolatlanmagan chet el kreditlariga - 1012,4 mlrd. so‘m (ulushi 12,4 % va o‘sish sur‘ati 76,9 % ni tashkil etdi) investitsiyalar o‘zlashtirildi.*

**Markazlashgan va markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da**




- Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi
- Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi
- Respublika byudjeti
- O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida xorijiy kreditlar


**O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da**



- Korxonalar mablag'i
- Aholi mablag'lari
- Kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar
- Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari
- To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar



***Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning  
moliyalashtirish manbalari bo'yicha tarkibi, mlrd. so'm***



*Moliyalashtirish manbalari bo'yicha yu'qori o'sish sur'ati O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 174,6 % hisobiga to'g'ri keldi.*




**Asosiy kapitalga investitsiyalar, shahar va tumanlar kesimida**

	<i>Asosiy kapitalga investitsiyalar mlrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>8167,4</b>	<b>80,4</b>
Nukus shahri	1156,3	61,4
Amudaryo	294,4	120,8
Beruniy	355,7	123,9
Bo'zotov	97,2	279,2
Qorao'zak	183,2	75,7
Kegeyli	135,8	104,8
Qo'ng'iro't	988,6	101,5
Qonliko'l	149,5	36,0
Mo'ynoq	2346,0	128,9
Nukus	182,8	81,5
Taxiatosh	586,2	33,3
Taxtako'pir	107,8	209,0
To'rtko'l	692,8	85,3
Xo'jayli	178,8	55,4
Chimboy	215,3	110,9
Shumanay	117,7	44,1
Ellikqal'a	379,3	80,2


*Eng yu'qori o'sish sur'ati Bo'zotov tumanida kuzatildi - 279,2 % va Taxtako'pir tumani - 209,0 % ni, bu hisobot davrida chorvachilikni rivojlantirish va ijtimoiy obyektlar qurilishi bilan bog'liq. Mo'ynoq tumanida - 128,9 % va bu yerda tabiiy gazni qazib olishga chet el kreditlari o'zlashtirildi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning tumanlar kesimida ulushi, % da**




**Ma'lumot uchun:** Umumiy hajmga nisbatan o'zlashtirilgan investitsiyalarning yu'qori ulushi Mo'ynoq tumaniga - **28,7 %** va Qo'ng'iro't tumani - **12,1 %**, bu chet el kreditlari hisobidan tog'-kon sanoatiga, tabiiy gazni qazib olishga o'zlashtirildi. Nukus shahriga – **14,3 %**, bu yerda ijtimoiy soha obyektlarini yangi qurilishi va rekonstruksiyasiga investitsiyalar o'zlashtirildi.

***Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi,  
ulushi, % da***



*Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi bo'yicha tahlil qilinganda Qoraqalpog'iston Respublikasida qurilish-montaj ishlariga 5730,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi va jami investitsiyaning 70,2 % ni tashkil etdi. Asosiy vositalarga investitsiyalarning mashina va uskunalarini sotib olishga 2093,2 mlrd. so'm (jamiga nisbatan 25,6 %) va boshqa harajatlar – 343,4 mlrd. so'm (4,2 %) o'zlashtirildi.*

**Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning takror ishlab  
chiqarish tarkibi, ulushi % da**



*Hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning ko'p qismi yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar bo'lib, hajmi 3969,8 mlrd. so'm ni tashkil etdi va umumiy hajmining 48,6 % ni tashkil etdi. Mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiya va texnik jihatdan qayta qurollantirishga 1977,8 mlrd. so'm o'zlashtirildi, va umumiy hajmining 24,2 % ni tashkil etdi. Shuningdek, 2219,8 mlrd. so'm boshqa yo'nalishlarga o'zlashtirildi va ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.*




***Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar***

	<i>ming. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, % da</i>
<b><i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i></b>	<b>4273,7</b>	<b>79,3</b>
Nukus shahri	3593,4	60,5
Amudaryo	1470,3	119,0
Beruniy	1843,7	121,7
Bo'zatov	4499,9	277,9
Qorao'zak	3457,7	75,1
Kegeyli	1865,2	104,0
Qo'ng'iro't	7557,9	100,1
Qonliko'l	2914,3	35,5
Mo'ynoq	73084,7	126,5
Nukus	3605,8	79,9
Taxiatosh	7889,6	32,8
Taxtako'pir	2675,0	208,1
To'rtko'l	3207,4	83,8
Xo'jayli	1447,4	54,7
Chimboy	1906,9	109,9
Shumanay	2087,2	43,8
Ellikqal'a	2363,4	78,7


*Aholi jon boshiga asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yuqori ko'rsatkichi Mo'ynoq tumanida qayd etildi – 73084,7 ming. so'm , bu hisobot davrida gaz qazib olishga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq. Taxiato'sh tumanida – 7889,6 ming. so'm , bu Taxiato'sh TESda yirik investitsiya loyihasi bilan bog'liq, Qo'ng'iro't tumanida aholi jon boshiga – 7557,9 ming so'm , bu tog'-kon sanoati va qayta ishlash sanoati tarmoqlariga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.*

***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga  
investitsiyalar, mlrd. so'm***



## **Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**

**(jamiga nisbatan, % da)**






*Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 1576,2 mlrd. so'm ( ulushi jami investitsiyalarning 19,3 % i), tog'-kon sanoatiga - 3082,1 mlrd. so'm yoki 37,7 % shundan – 3014,6 mlrd. so'm , yoki 36,9 % i tabiiy gaz qazib olishga o'zlashtirilgan, qayta ishlash sanoatiga - 556,9 mlrd.so'm (6,8 %), shundan boshqa nometall mahsulotlarini ishlab chiqarishga - 141,9 mlrd. so'm (1,7 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga - 91,9 mlrd. so'm (1,1 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga - 97,0 mlrd. so'm (1,2 %), elektr energiyasi va gaz ta'minotiga - 594,7 mlrd. so'm (7,3 %), suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga - 181,1 mlrd. so'm (2,2 %), qurilish - 133,1 mlrd. so'm (1,6 %), tashish va saqlash - 251,9 mlrd. so'm (3,1 %), ulgurji va chakana savdo , mototsikl va motorli transport vositalarini ta'mirlash - 94,4 mlrd. so'm (1,2 %), axborot va aloqa - 67,4 mlrd. so'm (0,8 %), professional, ilmiy va texnik faoliyat - 13,5 mlrd. so'm (0,2 %), ta'lim - 302,2 mlrd. so'm (3,7 %), davlat boshqaruvi va mudofaa - 183,8 mlrd. so'm (2,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari - 32,9 mlrd. so'm (ulushi 0,4 %), moliya va sug'urta faoliyati - 22,9 mlrd. so'm (ulushi 0,3 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar - 152,3 mlrd. so'm (1,9 %) san'at, ko'ngil ochish va dam olish– 60,0 mlrd. so'm (0,7 %), turar-joy qurilishi - 816,8 mlrd. so'm ( ulushi 10,0 %) va boshqa faoliyat turlari - 45,2 mlrd. so'm (ulushi 0,6 %).*

***Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar***

*(jamiga nisbatan, % da)*



*Hisobot davrida asosiy kapitalga uzlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning 55,1 % i tog'-kon sanoati faoliyat turiga to'g'ri keldi va 25,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyat turiga o'zlashtirildi.*



## QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

### Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar

*mlrd. so'm*

	<i>Jami xorijiy investitsiya va kreditlar</i>	<i>Shu jumladan:</i>		
		<i>To'g'ridan- to'g'ri xorijiy investitsiyalar</i>	<i>O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar</i>	<i>Kafolatlanmagan boshqa investitsiya va kreditlar</i>
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>3759,9</b>	<b>203,5</b>	<b>2544,0</b>	<b>1012,4</b>
<i>Nukus sh.</i>	<b>151,3</b>	<b>42,7</b>	<b>17,4</b>	<b>91,2</b>
<i>Amudaryo</i>	<b>71,9</b>	<b>5,5</b>	<b>19,9</b>	<b>46,5</b>
<i>Beruniy</i>	<b>143,3</b>	<b>-</b>	<b>105,3</b>	<b>38,0</b>
<i>Bo'zatov</i>	<b>31,8</b>	<b>-</b>	<b>0,1</b>	<b>31,7</b>
<i>Qorao'zak</i>	<b>40,2</b>	<b>2,4</b>	<b>0,5</b>	<b>37,3</b>
<i>Kegeyli</i>	<b>16,0</b>	<b>12,8</b>	<b>0,1</b>	<b>3,1</b>
<i>Qo'ng'iro't</i>	<b>423,3</b>	<b>98,0</b>	<b>1,1</b>	<b>324,2</b>
<i>Qonliko'l</i>	<b>10,9</b>	<b>3,8</b>	<b>0,3</b>	<b>6,8</b>
<i>Mo'ynoq</i>	<b>1787,0</b>	<b>8,2</b>	<b>1651,9</b>	<b>126,9</b>
<i>Nukus</i>	<b>39,8</b>	<b>8,4</b>	<b>0,6</b>	<b>30,8</b>
<i>Taxiatosh</i>	<b>335,8</b>	<b>1,1</b>	<b>274,0</b>	<b>60,7</b>
<i>Taxtakopir</i>	<b>18,5</b>	<b>-</b>	<b>-</b>	<b>18,5</b>
<i>To'rtko'l</i>	<b>412,2</b>	<b>0,2</b>	<b>372,9</b>	<b>39,1</b>
<i>Xo'jayli</i>	<b>37,2</b>	<b>-</b>	<b>0,1</b>	<b>37,1</b>
<i>Chimboy</i>	<b>56,0</b>	<b>17,1</b>	<b>0,1</b>	<b>38,8</b>
<i>Shumanay</i>	<b>14,5</b>	<b>3,3</b>	<b>0,2</b>	<b>11,0</b>
<i>Ellikqal'a</i>	<b>170,2</b>	<b>-</b>	<b>99,5</b>	<b>70,7</b>

Xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha: qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi - 948,0 mlrd. so'm (jami investitsiyalarning 25,2 % i), tog'-kon sanoatiga - 2072,8 mlrd. so'm (yoki 55,1 %), shundan - 2022,1 mlrd. so'm , yoki 53,8 % i tabiiy gaz qazib olishga o'zlashtirilgan, qayta ishlash sanoatiga - 264,2 mlrd.so'm ( ulushi 7,0 %), shundan boshqa nometall mahsulotlarini ishlab chiqarishga - 74,3 mlrd. so'm (ulushi 2,0 %), oziq-ovqat mahsulotlari va ichimlik ishlab chiqarishga - 36,3 mlrd. so'm ( ulushi 1,0 %), tekstil mahsulotlarini ishlab chiqarishga - 61,0 mlrd. so'm ( ulushi 1,6 %),elektr energiyasi va gaz ta'minotiga - 284,2 mlrd. so'm (7,6 %), suv ta'minoti, kanalizatsiya va chiqindilarni utilizatsiya qilishga - 20,3 mlrd. so'm ( ulushi 0,5 %), qurilish - 9,7 mlrd. so'm ( ulushi 0,3 %), tashish va saqlash - 20,3 mlrd. so'm (ulushi 0,5 %), ulgurji va chakana savdo – 40,4 mlrd. so'm ( ulushi 1,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari - 15,1 mlrd. so'm (ulushi 0,4 %), axborot va aloqa - 35,4 mlrd. so'm ( ulushi 0,9 %), boshqarish bo'yicha faoliyat va yordamchi xizmatlar ko'rsatish – 8,3 mlrd. so'm ( ulushi 0,2 %) ,ta'lim - 6,0 mlrd. so'm (ulushi 0,2 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar - 24,3 mlrd. so'm ( ulushi 0,6 %) va boshqa faoliyat turlari -10,9 mlrd. so'm ( ulushi 0,4 %).

### **Ijtimoiy soha**

Sog'liqni saqlash obyektlaridan kasalxonalarni yangi qurilishi va rekonstruksiyasiga 102,7 mlrd. so'm lik investitsiyalar o'zlashtirilib, sog'liqni saqlash faoliyat turining 67,4 % ini tashkil etdi. Shundan, yangi qurilishga 82,2 mlrd. so'm , mavjud obyektlarni rekonstruksiyasiga 20,5 mlrd. so'm o'zlashtirildi.

Taxtako'pir tumanida 135 o'rinli yangi kasalxona ishga tushirildi, asosiy fond qiymati 2,9 mlrd. so'm ni tashkil etdi. Shuningdek, Nukus



*shahrida asosiy qiymati 12,6 mlrd. so'mlik 120 o'rinli ko'p tarmoqli bolalar klinikasi ishga tushirildi.*

*Bundan tashqari, Nukus shahrida 100 o'rinlik mahsus kasalxona va jami qiymati 68,6 mlrd. so'm lik 1000 o'rinlik vaqtinchalik karantin zonalari ishga tushirildi.*

*Nukus shahrida 2 ta oliy o'quv maskanlari qurilishi va rekonstruksiyasiga 24,1 mlrd. so'm investitsiya o'zlashtirildi.*

*Ta'lim jarayoni sifatini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar doirasida umumiy ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarni qurish va rekonstruksiya qilish uchun 55,5 mlrd. so'm lik investitsiyalar sarflandi va ta'lim turiga kiritilgan investitsiyalarning 18,4 % ini tashkil etdi. Shundan 9,2 mlrd. so'm yangi qurilishlarga, 46,3 mlrd. so'm esa mavjud muassasalarni rekonstruksiya qilishga sarflandi. Mo'ynoq tumanida 220 o'quvchiga mo'ljallangan, dasturlashni chuqur o'rganadigan yangi ixtisoslashtirilgan innovatsion maktab foydalanishga topshirildi. Chimboy tumanida 216 o'quvchiga mo'ljallangan yangi maktab foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, rekonstruksiya qilinganidan so'ng Respublika bo'yicha 4140 o'quvchi o'rinli 12 ta umumta'lim maktabi foydalanishga topshirildi.*

*Maktabgacha ta'lim muassasalari ob'ektlarini qurish va rekonstruksiya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hisobot davrida 111,9 mlrd. so'm lik investitsiyalar sarflandi, shundan 6,7 mlrd. so'm lik yangi qurilishlarga, 105,2 mlrd. so'm lik esa mavjud ob'ektlarni rekonstruksiya ishlariga o'zlashtirildi. Yangi qurilishdan Nukus shahrida 120 o'rinli bitta, Mo'ynoq tumanida 160 o'rinli va Taxtakopir tumani 90 o'rinli muassasalar foydalanishga topshirildi. Bundan tashqari, rekonstruksiya qilinganidan so'ng, asosiy vositalar qiymati 105,2 mlrd. so'm lik, 4470 o'rinli 34 ta maktabgacha ta'lim muassasalari foydalanishga topshirildi.*



***Shahar va tumanlar kesimida maktabgacha ta'lim muassasalarining  
ishga tushirilishi***

	O'rinlar soni	Asosiy vositalar qiymati, mrd. so'm
<b><i>Qoraqalpog'iston Respublikasi</i></b>	<b>4840</b>	<b>114,9</b>
<b><i>Nukus sh.</i></b>	<b>540</b>	<b>9,9</b>
<b><i>Amudaryo</i></b>	<b>570</b>	<b>13,7</b>
<b><i>Beruniy</i></b>	<b>480</b>	<b>12,5</b>
<b><i>Bo'zatov</i></b>	<b>90</b>	<b>2,7</b>
<b><i>Qorao'zak</i></b>	<b>210</b>	<b>4,4</b>
<b><i>Kegeyli</i></b>	<b>150</b>	<b>3,8</b>
<b><i>Qo'ng'iro't</i></b>	<b>420</b>	<b>9,2</b>
<b><i>Mo'ynoq</i></b>	<b>160</b>	<b>5,6</b>
<b><i>Nukus</i></b>	<b>120</b>	<b>3,0</b>
<b><i>Taxiatosh</i></b>	<b>510</b>	<b>10,8</b>
<b><i>Taxtako'pir</i></b>	<b>330</b>	<b>9,8</b>
<b><i>To'rtko'l</i></b>	<b>300</b>	<b>7,0</b>
<b><i>Xo'jayli</i></b>	<b>120</b>	<b>3,2</b>
<b><i>Chimboy</i></b>	<b>540</b>	<b>12,8</b>
<b><i>Shumanay</i></b>	<b>180</b>	<b>4,2</b>
<b><i>Ellikqal'a</i></b>	<b>120</b>	<b>2,3</b>

*Hisobot davrida 3,7 milliard so'm lik sarmoyalar 3 ta bolalar musiqa va san'at maktablari binolarini qurishga sarflandi. Nukusda 2 ta, Bo'zatov tumanida 1 ta maktab foydalanishga topshirildi.*



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

***Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi***

***Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi***

***Aloqa telefoni: (61) 224-92-14***

***(61)222-75-91***